

KICHIK BIZNES RIVOJIGA TA'SIR ETUVCHI FAKTORLAR TAHLILI: TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA

Ajamilova Nigora Asametdinovna

Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Toshkent viloyati makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sir qiluvchi eng asosiy omillardan biri bo'lgan sanoat rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar statistik baholanib, uning rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'рни ayrim statistik tahlil usullarda baholangan. Shuningdek, sanoatning rivojlanishi hududning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari rivojlanishiga hamda natijada hudud aholisi farovonligiga qay darajada ta'sir qilishi ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: milliy iqtisodiyot, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, yalpi hududiy mahsulot, sanoat statistikasi, kichik biznes, kimyo sanoati, statistik guruhlash, tahlil va sintez.

Аннотация. В данной статье статистически оценены факторы, влияющие на промышленное развитие, которое является одним из основных факторов, влияющих на макроэкономические показатели Ташкентской области, а также с использованием некоторых методов статистического анализа оценена роль малого бизнеса и частного предпринимательства в его развитии. Также научно обоснована степень влияния развития отрасли на развитие макроэкономических показателей региона и, как следствие, на благосостояние жителей региона.

Ключевые слова: национальная экономика, макроэкономические показатели, валовой региональный продукт, отрасли экономики, бизнес, химическая промышленность, статистическая группировка, анализ и синтез.

Abstract. This article statistically evaluates the factors influencing industrial development, which is one of the main factors influencing the macroeconomic indicators of the Tashkent region, and also, using some methods of statistical analysis, evaluates the role of small businesses and private entrepreneurship in its development. Also, the degree of influence of industry development on the development of macroeconomic indicators of the region and, as a consequence, on the well-being of the region's residents has been scientifically substantiated.

Keywords: National economy, macroeconomic indicators, gross regional product, economic sectors, small business, chemical industry, statistical grouping, analysis and synthesis.

O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni barqaror iqtisodiy o'sish garoviga aylantirish davlatning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi maqsadlari doirasida ham kichik va o'rta biznesni xalqaro bozorlarga chiqishiga keng imkoniyatlar yaratish va startaplarni qo'llab-quvvatlash kabi belgilangan vazifalar davlat biznesning bunday turlarini rivojlanishidan manfaatdorligini tasdiqlaydi.

O'zbekistonda 2019-yildan beri yalpi ichki mahsulotning (YIMning) 50 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatlaridan hosil bo'lmoqda. 2022-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YIMdagi ulushi 2019-yilga nisbatan 4 foizga kamaygan hamda ushbu yillarda qurilish va bandlikdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushlari ham 2–3 foizga kamaygan. Eng katta o'zgarish importda kuzatilgan bo'lib, qariyb 13 foizga kamayish kuzatilgan. Ammo bu ko'rsatkich sanoat va eksportda ijobiy yo'nalishga o'zgarib, 0,2 (sanoat) va 2,6 (eksport) foizlarga ko'payish kuzatilgan.

Kichik va o'rta biznesning "yashillikka" asoslangan ish tartibiga o'tish doirasida ham yuqoridagi Qarorda aniq ko'rsatmalar berilgan. Ya'ni, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining "yashil" va energiya samarador loyihalari bo'yicha kompensatsiya va kafilliklar ajratish tizimini yo'lga qo'yishi bir chora sifatida belgilangan. Yana bir chora sifatida esa kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarida yashil texnologiyalarni joriy qilishni qo'llab-quvvatlash uchun jamg'armaga xalqaro va xorijiy moliya institutlaridan 100 million dollar miqdorida mablag'lar jalb qilinishi kerakligi ta'kidlangan.

Davlat hududiy siyosatining asosiy maqsadlariga quyidagilar kiradi:

- mamlakatda hududiy siyosatning iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va tashkiliy asoslarini yaratish;
- hududlarning iqtisodiy imkoniyatlaridan qat'iy nazar, yagona minimal ijtimoiy standartlar va teng ijtimoiy himoyani ta'minlash, fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini kafolatlash;
- hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tenglashtirish;
- atrof-muhit ifloslanishini to'xtatish hamda uning ifloslanishi oqibatlarini yo'qotish, hududlarni kompleks ekologik himoya qilish;
- o'ta muhim strategik ahamiyatga ega hududlarni ustuvor rivojlantirish;
- hududlarning tabiiy - iqlim xususiyatlaridan to'liq foydalanish;
- o'zini-o'zi boshqarish kafolatlanishini ta'minlash.

Yuqoridagi maqsadlardan kelib chiqqan holda hududiy siyosatning vazifalari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, mintaqalarda ko'p ukladli iqtisodiyotni, shu jumladan, kichik tadbirkorlikni shakllantirish, tovar, mehnat va kapitalning umumdavlat va Hududiy bozorlari hamda institutsional va bozor infratuzilmasi shakllanishiga ko'maklashish;
- hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish jarayonidaga katta farqlarni

kamaytirish, ularda aholi farovonligini oshirishning o'z iqtisodiy bazalarini mustahkamlovchi sharoitlarni bosqichma - bosqich yaratish;

- hududlar iqtisodiy tuzilmasining ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydigan darajasiga erishish, bozor sharoitida ularning raqobatbardoshligini oshirish;

- hududlararo infratuzilmaviy tizimlarni (transport, aloqa axborot va boshqalar) rivojlantirish;

- ekologik va favqulodda holatlarga uchragan, ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan, demografik va migratsion muammolar mavjud hududlarga davlat tomonidan yordam ko'rsatish, endi esa hududiy siyosat vositalarini ko'rib chiqamiz.

Siyosatni amalga oshirish vositalari sifatida mikro va makro darajada qo'llaniladigan turli xil bevosita va bilvosita, ma'muriy-huquqiy va iqtisodiy vositalar xizmat qiladi. Hududiy siyosatni amalga oshirish vositalari quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

- hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni prognoz qilish;
- hududlar iqtisodiyoti va ijtimoiy soha obyektlarini rivojlantirishda davlatning to'g'ridan - to'g'ri ishtiroki; - davlat buyurtmalarini joylashtirish;
- mahalliy hokimiyat imkoniyatlari chegaralangan faoliyat sohalarida xudularga tashkiliy, huquqiy va axborot ko'magini ko'rsatish;
- iqtisodiy mexanizm va vositalarni qo'llash;
- erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish.

Prognoz qilish – Hududiy taraqqiyot strategiyasini ilmiy asoslash va Hududiy siyosatni ishlab chiqishning muhim tarkibiy qismi, prognozlarni ishlab chiqishdan asosiy maqsad – yuz berayotgan va kutilayotgan jarayonlarning rivojlanishi, hududiy siyosat va uni amalga oshirish vositalarining variantlari, u yoki bu boshqaruv qarorlarining oqibatlarini baholashahri Mintaqaviy siyosatni amalga oshirish shakllaridan biri davlatning mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha maqsadli dasturlari hisoblanadi. Ularga hozir ham, kelajakda ham alohida e'tibor berish kerak. Hudud iqtisodiyoti va ijtimoiy soha obyektlarini rivojlantirishda davlatning to'g'ridan-to'g'ri ishtiroki manzilli tartibga solish yo'llaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Bunga misol tariqasida mamlakatda investitsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishni keltirish mumkin. Hududiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy iqtisodiy mexanizimi budjet tizimi hisoblanadi. Budjetlar qonuniy aktlar asosida qabul qilinadi va ishlatiladi. Hududiy rivojlanishning makroiqtisodiy vositalari davlatning soliq, kredit, investitsiya, narx, ijtimoiy va boshqa siyosatning hududlar bo'yicha differentsiatsiyalashgan parametrlari sifatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish davlat iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismidir.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari sanoat tarmog'ini yuksaltirish orqali yuqori darajada iqtisodiy o'sishga erishgan. Sanoat tarmog'ini rivojlantirishda, o'z navbatida, bozor talablaridan kelib chiqib tezkor moslanuvchan va moliyaviy risklarga bardoshli hisoblangan hamda ishsizlik muammosini asosiy yechimi bo'lgan kichik

biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi yillar davomida yanada yuksalib kelmoqda. Iqtisodiyot aniq raqamlar, hisob-kitoblar bilan birga, odamlar turmush tarzida yuz berayotgan real o'zgarishlar, natijadorlikni xush ko'radi. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 29-maqsadiga ko'ra, tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning YaIMdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish belgilangan. Mamlakatimizda kichik biznesni va xususiy tadbirkorlikni yanada barqaror qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to'g'risida" 2019-yil 13-avgustdagi PF-5780-son Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2019-yil 13-avgustdagi PQ-4417-son qarorlari qabul qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investisiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investisiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi".

Xulosa qilish mumkinki, kichik va o'rta biznes mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega va shuni hisobga olgan holda davlat idoralari, xalqaro tashkilotlar va umuman manfaatdor tomonlar kichik va o'rta biznesning rivojlanishini jadallashtirish uchun birga ishlashlari kerak. Inson salohiyatini oshirish, ayniqsa ayollarning va yoshlarning biznes loyihalarini qo'llab-quvvatlash yanada barqaror iqtisodiyotni yaratishda muhim omil hisoblanadi. Xususiy sektor va davlat o'rtasidagi hamkorlik kichik va o'rta biznes orqali ilg'or tajribalarni namoyon etishda, barqaror va inklyuziv iqtisodiy muhitni yaratishda juda muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli farmoni. <http://lex.uz>
2. D.A. Ismailov. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. Scientific Progress Volume 2 | Issue 7 | 2021 ISSN: 2181-1601
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so'zi, 29.12.2018 y
4. O'zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi Qonuni. – «Xo'jalik va xuquq», 2000 y., 9-son.

5. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «To`g`ridan –to`g`ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag`batlantirish borasidagi qo`shimcha choratadbirlar to`g`risida»gi Farmoni. – «Xalq so`zi», 2005y., 12 aprel.

6. I.A.Karimov “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish–davr talabi”. Xalq s o`zi, 2009y 14 fevral.

7. Bakhtiyarovna, Y. E. (2019). Portfolio as an assessment tool for individualized instruction. Достижения науки и образования, (5 (46)).